


I. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 19 317,1 mldr. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 106,4 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (93,5 %)ni tashkil etdi.

**Yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish tarkibi**
(jami sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan %da)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalarini tomonidan 2021 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 100,4 mldr.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %ni tashkil etdi.


Tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat turi hajmida 31,1 %ga pasayish kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (gayta ishslash sanoati)

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18058,1 mldr.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 93,5 %ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining hajmi 124,3 mldr. so‘mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 2468,7 mldr. so‘mni, (12,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali 5255,1 mldr. so‘mni (27,2 %), va quyi texnologiyali – 10209,9 mldr. so‘mni, (52,9 %) tashkil etdi.


**Yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarishning
texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da**



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan
natura ko‘rinishida ayrim turdagisi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2021 yil yanvar-sentabr oylari uchun)**

2021-yilning yanvar-sentabr oylari davomida 2020-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan dizel yoqilg‘isi 13,9 %ga, neft bitum 2 marta, klinkersement 19,6 %, Paxta linti 75,6% ortgan.

Ayrim turdagisi sanoat mahsulotlari



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1041,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,4 %ni) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,4 %ga o‘sishi kuzatildi.

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 117,0 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ni) tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 27,3 %ga pasayish kuzatilgan bo‘lsa, to‘qimachilik chiqindilari esa 2,0%ga oshganligi, kuzatildi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2021 yil yanvar-sentabr oylari uchun)**

| | <i>mldr.so‘m</i> | <i>jamiga nisbatan % da</i> |
|---|------------------|-----------------------------|
| Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi | 19 317,1 | 100,0 |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 100,4 | 0,5 |
| <i>ulardan:</i> | | |
| Tog‘-kon sanoatining boshqa turlari | 100,4 | 0,5 |
| Qayta ishlash sanoati | 18 058,1 | 93,5 |
| <i>undan:</i> | | |
| oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish | 3 018,9 | 15,6 |
| to‘qimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish | 6 270,4 | 32,5 |
| yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari | 653,2 | 3,4 |

| | <i>mldr.so‘m</i> | <i>jamiga nisbatan % da</i> |
|---|------------------|-----------------------------|
| yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 3,5 | 0,02 |
| koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 2 094,4 | 10,8 |
| kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 2 276,8 | 11,8 |
| asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish | 75,1 | 0,4 |
| boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish | 2 151,2 | 11,1 |
| metallurgiya sanoati | 157,3 | 0,8 |
| Mashina va uskunaldardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 398,4 | 2,1 |
| Kompyuterlar, elektron va optik maxsulotlar ishlab chiqarish | 49,3 | 0,3 |
| Elektr uskunalar ishlab chiqarish | 119,3 | 0,6 |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish | 87,9 | 0,5 |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish | 211,9 | 1,1 |
| Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish | 205,6 | 1,1 |
| Mebel ishlab chiqarish | 180,5 | 0,9 |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish | 264,0 | 1,4 |
| Mashina va uskunalarni ta’mirlash va o’rnatish | 21,4 | 0,1 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash | 1 041,5 | 5,4 |
| Suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | 117,0 | 0,6 |

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 112,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va uning jami sanoatdagi ulushi 36,8 %ni tashkil etdi.




Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida

| | <i>Hajmi mlrd. so'm</i> | <i>Ulushi %</i> | <i>O'sish sur'ati %</i> |
|------------------------------------|-------------------------|-----------------|-------------------------|
| 1 <i>Oltiariq t.</i> | 115,8 | 1,6 | 197,9 |
| 2 <i>Qo'shtepa t.</i> | 209,3 | 2,9 | 81,5 |
| 3 <i>Bag'dod t.</i> | 561,7 | 7,9 | 109,4 |
| 4 <i>Buvayda t.</i> | 296,4 | 4,2 | 115,3 |
| 5 <i>Beshariq t.</i> | 130,9 | 1,8 | 64,5 |
| 6 <i>Quva t.</i> | 207,9 | 2,9 | 117,1 |
| 7 <i>Uchko'prik t.</i> | 1270,8 | 17,9 | 117,3 |
| | <i>Hajmi mlrd. so'm</i> | <i>Ulushi %</i> | <i>O'sish sur'ati %</i> |


| | | | | |
|--------------------------|-----------------------|---------------|--------------|--------------|
| 8 | Rishton t. | 151,6 | 2,1 | 121,5 |
| 9 | So‘x t. | 59,5 | 0,8 | 104,8 |
| 10 | Toshloq t. | 467,7 | 6,6 | 91,9 |
| 11 | O‘zbekiston t. | 191,3 | 2,7 | 100,2 |
| 12 | Farg‘ona t. | 131,1 | 1,8 | 101,3 |
| 13 | Dang‘ara t. | 286,3 | 4,0 | 104,8 |
| 14 | Furqat t. | 197,9 | 2,8 | 184,1 |
| 15 | Yozyovon t. | 102,4 | 1,4 | 116,9 |
| 16 | Farg‘ona sh. | 791,4 | 11,1 | 99,6 |
| 17 | Qo‘qon sh. | 1210,1 | 17,0 | 109,9 |
| 18 | Quvasoy sh. | 137,4 | 1,9 | 146,7 |
| 19 | Marg‘ilon sh. | 592,8 | 8,3 | 102,6 |
| Farg‘ona viloyati | | 7112,2 | 100,0 | 107,8 |

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishdagi fizik hajm indeksi (FHI)

(2021 yil yanvar-sentabr oylari uchun %da)




Hududlarning viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (2021 yil yanvar-sentabr oylari uchun)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi mos ravishda oshishiga olib keldi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 44,7 %ni tashkil etmoqda.




**Hududlar bo‘yicha yirik korxonalar va kichik biznesning
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi.
(2021 yil yanvar-sentabr, % hisobida)**



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg‘ona (17 957,6 ming so‘m), Qo‘qon (11 431,1 ming so‘m), Quvasoy (10 086,7 ming so‘m) shaharlarida va Toshloq (11 479,8 ming so‘m) tumanida yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 847,8 ming so‘m bo‘lgan holda, Uchko‘prik tumani – 5 435,8 ming so‘mni, Qo‘qon shahri – 4 693,6 ming so‘mni, Farg‘ona shahri – 2 676,7 ming so‘mni , Bag‘dod tumani – 2 546,5 ming so‘mni, Toshloq tumani 2 260,1 ming so‘mni, Furqat tumani 1 645,8 ming so‘mni, Dang‘ara tumanida – 1 607,6 ming so‘mni tashkil etdi.

**Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste’mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmi, ming so‘mda**
(2021 yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 10 287 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1 525 tasi (ro‘yxatdan o’tgan korxonalar umumiy sonining 14,8 %) Qo‘qon shahriga, 1 149 tasi (11,2 %) Farg‘ona shahriga, 1 088 tasi (10,6 %) Marg‘ilon shahriga, 699 tasi (6,8 %) Uchko‘prik tumaniga, 598 tasi (5,8 %) O‘zbekiston tumaniga, 598 tasi (5,8 %) Buvayda tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 1688 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shularidan 164 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 9,7 %) Qo‘qon shahrida, 135 tasi (8,0 %) Farg‘ona shahrida, 113 tasi (6,7 %) Marg‘ilon shahrida, 99 tasi (5,9 %) Uchko‘prik tumanida, 118 tasi (7,0 %) Dang‘ara tumanida, 97 tasi (5,7 %) Rishton tumanida, 87 tasi (5,2 %) Oltiariq tumanida, hamda 103 tasi (6,1 %) O‘zbekiston tumanida tashkil etildi.


Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yil boshidan yangi tashkil etilgan korxonalar

(2021 yil 1-oktabr holatiga ko'ra soni birlikda)

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda*



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, *birlikda*



Viloyatda sanoat korxonalarining mahalliylashtirish darajasi
(2021 yil yanvar- sentabr oylari uchun)

2021-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo‘yicha 110 ta korxona mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan bo‘lib, ulardan 109 tasi mahalliy korxonalar hisoblanadi. Bu korxonalar tomonidan 139 loyihalor dasturga kiritilgan. Joriy yilning yanvar- sentabr oylarida 110 ta korxonadan 103 tasi mahalliylashtirishni amalga oshirgan va ular tomonidan 132 ta loyiha bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarilgan. 2021-yil yanvar-sentabr oylarida korxonalar tomonidan taqdim etilgan hisobotlarga ko‘ra 1173,1 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lib, 7,7 mln AQSh dollar miqdorida eksport amalga oshirilgan.

| № | Hudud nomi | Loyiha miqdori | | Korxona soni | | Ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m) | Export hajmi (mln. AQSh doll.) | Yangi yaratilgan ish o‘rni |
|-------------------|----------------------|----------------|------------|--------------|------------|---|--------------------------------------|----------------------------------|
| | | kutilish | amalda | kutilish | amalda | | | |
| | Viloyat jami: | 139 | 132 | 110 | 103 | 1173,1 | 7,7 | 1246 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | | | | | |
| 1 | Farg‘ona | 32 | 32 | 20 | 20 | 523,713 | 5,428 | 44 |
| 2 | Qo‘qon | 11 | 11 | 11 | 11 | 100,479 | 0,154 | 10 |
| 3 | Quvasoy | 5 | 5 | 5 | 5 | 195,958 | 1,276 | 160 |
| 4 | Marg‘ilon | 11 | 10 | 11 | 10 | 58,361 | 0,093 | 311 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | | | |
| 5 | Oltiariq | 1 | 1 | 1 | 1 | 0,046 | 0,002 | - |
| 6 | Qo‘shtepa | 6 | 6 | 6 | 6 | 2,218 | 0,037 | 11 |
| 7 | Bag‘dod | 4 | 4 | 4 | 4 | 3,197 | - | 18 |
| 8 | Buvayda | 5 | 5 | 5 | 5 | 15,846 | 0,022 | 35 |
| 9 | Beshariq | 3 | 3 | 3 | 3 | 1,682 | - | 60 |
| 10 | Quva | 16 | 16 | 1 | 1 | 0,467 | - | - |
| 11 | Uchko‘prik | 19 | 16 | 18 | 15 | 219,200 | 0,505 | 244 |
| 12 | Rishton | 2 | 2 | 2 | 2 | 1,046 | - | 67 |
| 13 | So‘x | 1 | 0 | 1 | 0 | - | - | - |
| 14 | Toshloq | 2 | 2 | 2 | 2 | 1,720 | - | 11 |
| 15 | O‘zbekiston | 4 | 4 | 4 | 4 | 2,164 | - | 18 |
| 16 | Farg‘ona | 4 | 3 | 4 | 3 | 22,652 | 0,172 | 215 |
| 17 | Dang‘ara | 9 | 8 | 8 | 7 | 16,877 | 0,045 | 26 |
| 18 | Furqat | 2 | 2 | 2 | 2 | 1,046 | - | 1 |
| 19 | Yozyovon | 2 | 2 | 2 | 2 | 6,419 | - | 15 |

